

QUL UBAYDIY KULLIYOTINI O'RGANISH

Farg'ona davlat universiteti

23.90A-guruh talabasi

Nabiyeva Qumrinoz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Qul Ubaydiyning kulliyoti ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoirning hayoti va ijodiy muhiti, kulliyotni tashkil etuvchi janrlar, asarlarda ko'tarilgan asosiy g'oyalar hamda poetik xususiyatlar yoritilgan. Tadqiqot davomida Qul Ubaydiy g'azal, muxammas, qit'a va boshqa janrlardagi asarlarining badiiy-estetik qimmati, tasavvufiy-falsafiy mazmuni hamda tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qul Ubaydiy, kulliyot, mumtoz adabiyot, tasavvuf, g'azal, muxammas, poetika, ma'naviyat, komillik, badiiy meros.

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan Qul Ubaydiy ijodi badiiy yetuklik, tasavvufiy teranlik va ma'naviy kamolot g'oyalarining uyg'unligi bilan ajralib turadi. Shoirning kulliyoti bugungi kunda ham g'oyaviy mazmuni, adabiy-badiiy ahamiyati bilan tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Qul Ubaydiy asarlarida ilohiy ishq, insoniylik, sabr va qanoat, nafsni tiyish kabi tasavvufiy-axloqiy tushunchalar yorqin ifodasini topgan bo'lib, ular o'z davrining ruhiy-ma'naviy manzarasini aks ettiradi. Mazkur maqola shoir kulliyotining tuzilishi, undagi mavzular, poetik o'ziga xoslik va adabiyotshunoslikda o'rganilish masalalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Ubaydullaxon, Ubaydulla Sulton, Ubaydiy (to'liq ismi: Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon) (1486, Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesi — 1540.17.3, Buxoro) — Buxoro xoni (1533—40), shoir. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li. Otasining iltimosiga ko'ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o'z ismini bergan. Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono

Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxon o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan) harbiy san'atdan saboq bergan va o'ziga murid qilib olgan.

Xorazm va Buxoro hokimi bo'lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O'rusbek Do'rmon (1512 yil Ko'li Malikda bo'lgan jangda o'ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan. Ubaydullaxon amakisi Shayboniynonning Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va Mashhad (1507)ga qilgan harbiy yurishlarida qatnashgan. Dastlab safaviylar qo'shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho'chigan Ubaydullaxon va Muhammad Temur Sulton (Shayboniynonning o'g'li) shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar. Shayboniylar sulolasining xoni Ko'chkunchixonikng asosiy noibi (1510 yildan) va Buxoro hokimi (1504 yildan) sifatida Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otlangan. 1511 yilda bo'lgan jangda yengilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarqand hokimi Suyunchxo'jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton o'z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar.

1512 yil 28 aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullaxon g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512 yili bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana shayboniylar qo'liga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo'shiniga suyang'an Bobur 1512 yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga; Kuchkunchixon va Temur Sulton Miyonkolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik kurishadi. 1512 yil 24 noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozongan.

Ubaydullaxon Shayboniylar davlatini kengaytirishga harakat qildi. Ikki marta 1529- va 1536-yillarda Hirotni Besh marta (1524—1525), (1526—1528), (1529—1531), (1532—1533), (1535—1538), Ubaydullaxon boshchiligida o'zbeklar

Xurosonga bostirib kirishdi. U ichki nizolarga barham bera oldi. Biroq, uning vafotidan keyin siyosiy tarqoqlik kuchaydi ko‘plab Shayboniy shahzodalari taxt uchun kurashni boshladilar.

Buxoro Ubaydullaxon farmoni bilan 1530—1536-yillarda buyuk shayx Abdulloh Yamaniyga tuhfa sifatida Buxoroda Mir Arab madrasasi qurilgan Mehtar Qosim ko‘prigi ham Ubaydullaxon davri inshootlaridan hisoblanadi. Buxoro shahrining atrofini yangi devor bilan o‘rab, katta chorbog‘ qurdiradi. Keyinchalik Buxoro xoni Abdullaxon Sirdaryoning Sauran shahrida Ubaydullaxon 1515-yilda madrasa qurdiradi.

Ubaydulla Xon juda o‘qimishli, mohirona Qur‘on o‘qigan va turkiy tilda sharhlar bergan, iste‘dodli qo‘shiqchi va sozanda edi. XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda eng muhim saroy adabiy doirasining shakllanishi Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Ubaydullanning o‘zi Ubaydiy adabiy taxallusi bilan turkiy, fors va arab tillarida she‘rlar yozgan. Uning she‘rlari to‘plami bizgacha yetib kelgan. . Uning arab tilidagi merosi 35 ga yaqin g‘azal, bayt va baytdan iborat. Ubaydullaxon „Sabrnoma“, „Omonatnoma“, „Shavqnoma“ va „G‘ayratnoma“ singari didaktik she‘rlarning muallifi edi. U turkiy tilda Qur‘onga sharh yozgan. U Buxoroda miniatyurada o‘ziga xos Buxoro uslubi yaratilgan birinchi haqiqiy kitobxonaning asoschisi hisoblanadi. Ubaydullaxon vorislari davrida ishlab chiqilgan va Buxoro maktabi deb nomlangan. Uning „Devon-i Ubaydi“ (qo‘lyozma Londonda, Britaniya muzeyida saqlanadi) she‘riy t‘oplami bor. Ubaydullaxon arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma fondida „Kulliyat-i Ubaydiy“ she‘rlari jamlanmasi saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.Mannopov,S.Inomov” Ubaydiy shariyatida ruboiy janrining roli va ahamiyati”
- 2.O‘zbekiston tarixi .2-qism.Toshkent ,1993.